

O`ZBeKISTON ReSPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti

Geografiya o`qitish metodikasi kafedrası

***Tabiiy fanlar fakul`tetning «geografiya o`qitish
metodikasi» mutaxassisligi
4^b kurs talabasi***

Jumabaeva Maloxat Muxtar qizining

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

***Mavzu: Geografiya darslarida gidrosfera mavzusini
o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari***

Ilmiy rahbar:
Kafedra mudiri:

dots. g.f.n. G. Utepova
dots. p.f.n. R.Gaipova

NUKUS – 2016

MUNDARIJA

K I R I Sh.....

I.Bob. Tabiatda suvning ahamiyati.....

1.1. Hidrologiya fani tarixi

1.2. Hidrologiya fani, uning vazifalari.....

**II.Bob. Geografiya darslarida gidrosfera mavzusini
o`qitishning ahamiyati.....**

2.1. Suv resurslarini ifloslantiruvchi asosiy manbalar.....

2.2. Suv resurslarini muhofaza qilish.....

X U L O S A.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

I.Bob. Tabiatda suvning ahamiyati

1.1. Gidrologiya fani tarixi

Taniqli olim O. A. Spengelning yozishicha gidrologiya xaqidagi ilk fikrlar bundan 6000 yil avval qadimgi Misrda paydo bo`lgan. Usha paytdayoq misrliklar oddiy, gidrologik kuzatishlarni amalga oshirganlar. Ular hozirgi Asvon tug`onidan 400 km yuqorida - tog` qoyalarida suv sathining o`zgarishini belgilaganlar. Nil daryosida bo`ladigan har yilgi suv toshqini qaysi vaqtda ko`zatilganligini qayd qilib borganlar. Keyinroq esa quyi Nilda 30 ga yaqin «gidrologik» kuzatish joylari (postlar) tashkil etilgan. Ana shulardan biri Kohira yaqinida saqlanib qolgan bo`lib, u yuksak did bilan ishlangan ajoyib arxitektura yodgorligi hisoblanadi.

Qadimiy misrliklarni yuqoridagi ishlarni bajarishga hayot talabi majbur qilgan, chunki hosil takdiri daryodagi suvning oz yoki ko`pligiga bog`lik bo`lgan. Demak, gidrologiya o`sha davrdayoq inson ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan hayotiy fan bo`lgan.

Shuni ham ta`kidlash lozimki, gidrologiya qadimgi Misrdagi ko`zatishlardan boshlanib, toki alohida fan bolganiga qadar bir necha ming yillar o`tib ketdi. Gidrologiyaning rivojlanishi tarixida 17-asr oxirida Frantsuz olimi P. Perro va undan sung E. Mariott qilgan ishlar katta ahamiyatga ega bo`ldi. Ular Yuqori Sena daryosi havzasiga yoqin atmosfera yog`inlari miqdorini va daryodagi suv miqdorini ulchadilar. Bu bilan ular suv muvozanatining asosiy tashkil etuvchilari orasidagi munasabatni aniqladilar va «daryolar er osti suvlaridan yoki qandaydir manbalardan hosil bo`ladi» degan chalkash fikrlarga zarba berdi.

Ana shu davrda ingliz astronom olimi E. Galley tajriba asosida suv yuzasida bo`ladigan bug`lanish miqdorini (Urta er dengizda) anikladi. Bu bilan u er kurrasida suvning aylanish sxemasini tuzishga yakun yasadi.

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim muammolardan biri global miqyosdagi inson xavfsizligini, xususan uning asosiy tarkibiy qismi bo'lmish ekologik xavfsizlikni ta'minlashdir. Chunki iqlimning global isishi, dunyo okeani sathining ko'tarilishi, ozon qatlamining emirilishi, kislotali yomg'irlarning hosil bo'lishi, cho'llashish, tropik kasalliklarning keng tarqalishi kabi ekologik muammolar davlatlar xavfsizligi va ularning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Respublikamiz miqyosida ularni cho'llashish jarayoni, Orol dengizi inqirozi, atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi va ifloslanishi, qishloq xo'jalik erlarining yaroqsiz holatga kelishi, aholi salomatligining yomonlashuvi, zilzila, ko'chkilar, sel kelishi, surilma kabi holatlarda ko'rish mumkin. Ekologik muammolar milliy xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi boshqa holatlardan farqli ravishda o'zining yashirin tarzda, asta-sekinlik bilan ta'sir etishi va halokatli oqibatlarga olib kelishi bilan ajralib turadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir", - deb bejiz aytmagan.

Mamlakatimizdagi xavfsizlik va barqarorlik masalalarini dastlab ekologik inqiroz o'choqlaridan biri – Xorazm viloyatida geografik jihatdan tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Chunki viloyatdagi tabiiy geografik komplekslarda tuproq sho'rlanishi, grunt suvlari sathining ko'tarilishi va mineralizatsiya darajasining ortib borishi, toza ichimlik suvi muammolarining ko'payishi hamda ularning organizmlarga salbiy ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Mazkur holatdan kelib chiqib, ekologik xavfsizlikni yuzaga keltiruvchi vaziyatlarni tabiiy geografik jihatdan ilmiy asoslash shu kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Ekologik xavfsizlik va unga oid muammolarini ko'plab soha mutaxassislari o'z ilmiy yo'nalishlariga mos holda turlicha tahlil qilganlar. Masalan, uning umumekologik jihatlari V.I. Danilov-Danil'yan (1997), P.M.

Mische (1998), R.G. Mamin (2003), T. Ergashev, A. Ergashev (2007), falsafiy jihatlarini W.S. Swaminathan (2001), V.S. Polikarpov (2001), A.A. Sergunin (2003), D.N. Xiao, W.B. Chen (2002), iqtisodiy jihatlarini P.H. Gleick (1994), V.V. Gorbatovskiy, N.G. Рыбал`skiy (1996), V.N. Burkov va boshq. (2001), X. Shi (2006), harbiy jihatlarini J.J.Holst (1989), T.Homer-Dixon va boshq. (1993), I. De Soysa (1999, 2000), huquqiy jihatlarini T. Tillyaevlar (2004) tomonidan atroflicha o`rganilgan. Lekin ekologik xavfsizlikning tabiiy geografik jihatlarini maxsus tadqiqot predmeti sifatida olinmagan. Vaholanki, u o`zining kompleksliligi, davriyligi va hududiyiligi bilan keskin ajralib turadi.

ekologik xavfsizlik – milliy xavfsizlikni ta`minlashning fundamental omili ekanligini tabiiy geografik jihatdan ochib berish;

ekologik xavfsizlik va uning tabiiy geografik jihatlarini ilmiy-nazariy asoslariga aniqliklar kiritish;

Xorazm viloyatida ekologik xavfsizlikni belgilovchi omillarning hududiy, davriy hamda komplekslilik xususiyatlarini ochib berish;

Ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan rayonlarga ajratish.

Ekologik xavfsizlik muammolari va ularning echimiga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, mustaqil davlatimizning 1991-2009 yillar davomida qabul qilgan ekologik qonun hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining “O`zbekiston Respublikasida 2008-2012 yillar mobaynida atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi” kabi milliy ekologik siyosatiga asoslanib e`tirof etilgan ekologik xavfsizlikka oid ko`rsatmalari tadqiqotning metodologik asosi bo`lib xizmat qildi. U O`zbekiston Respublikasining mustaqil va huquqiy demokratik davlat qurish, suverenlik, qonunlar ustuvorligi, ekologik tizimlarning o`zaro uzviy bog`langanligi va nozikligi, ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning asosiy elementi ekanligi, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish va uni ta`minlash chora-tadbirlarining hududiy farqlanishi kabi printsiplarga tayanadi.

Tadqiqotni olib borishda zamonaviy geografik axborotlar tizimi texnologiyasining “MapInfo” dasturi viloyatdagi ekologik xavfsizlik darajasini

tabiiy komponentlar bo'yicha baholash va rayonlarga ajratishda qo'llanildi. Ishda tabiiy geografik tadqiqot, kuzatuv, qiyosiy geografik va qiyosiy ekologik, kartografik, masofadan ma'lumotlarni olish, kartalarni raqamlashtirish, matematik va mantiqiy tahlil, statistik va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Ishning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan tarzda quyidagilardan iborat:

ekologik xavfsizlik tushunchasi, mazmuni va uning tabiiy geografik jihatlarini;

milliy xavfsizlikning ekologik xavfsizlik xususiyatlari;

ekologik xavfni vujudga keltiruvchi omillar tasnifi;

ekologik xavfsizlikni belgilovchi omillar;

ekologik xavfsizlik kartasi.

ilk bor, tabiiy geografik nuqtai nazardan ekologik xavfsizlikning keng qamrovli tushunchasi taklif qilindi;

milliy xavfsizlikning ekologik xavfsizlik xususiyatlariga aniqliklar kiritildi;

ekologik xavfni vujudga keltiruvchi omillar tabiiy geografik jihatdan guruhlashtirildi;

ekologik xavfsizlikning tabiiy geografik jihatlarini aniqlandi;

ekologik xavfsizlikning mazmun va mohiyati hududilik, komplekslilik va davriylik nuqtai nazaridan talqin qilindi;

ekologik xavflilik jihatidan baholandi va ekologik xavfsizlik rayonlariga ajratildi.

Tadqiqot ishida qo'llanilgan usullar, kartografik ma'lumotlar va ekologik xavflilikni baholash mezonlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ish faoliyatida, ekologik ta'lim bo'yicha tegishli yo'nalishlardagi mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, Xorazm viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun tadbirlar tizimini ishlab chiqish, viloyatda er-suv

resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish hamda sug`orma dehqonchilikni to`g`ri tashkil qilishda qo`llash uchun tavsiya etiladi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning o`rganilganlik darajasi, ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob`ekti, predmeti, metodologiyasi va metodlari, himoyaga olib chiqilayotgan holatlar, ishning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning e`lon qilinganligi, ishning sinovdan o`tishi hamda tarkibiy tuzilishi berilgan.

Ekologik xavfsizlikning ilmiy asoslari” deb nomlanib, ekologik xavfsizlik tushunchasi, uning milliy xavfsizlikni ta`minlashdagi ahamiyati, ekologik xavfni vujudga keltiruvchi omillar va ekologik xavfsizlikning tabiiy geografik jihatlariga oid ilmiy-nazariy asoslari hozirgi kun nuqtai nazaridan yoritilgan.

geografik o`rni va undan kelib chiqadigan ekologik xavfsizlikni belgilovchi omillar, jumladan, tabiiy geografik omillar: geologik va geomorfologik sharoit, iqlim, gidrologik va gidrogeologik sharoit, tuproq sharoiti, o`simlik va hayvonot dunyosi hamda antropogen ta`sir tahlil qilingan.

ekologik xavfsizligining tabiiy geografik jihatlari” deb nomlanib, unda viloyat hududini ekologik xavflilik darajasi bo`yicha baholash, uning darajalari bo`yicha ekologik xavfsizlik rayonlariga ajratish va ularga tabiiy geografik tavsif berish masalalari ko`rib chiqilgan.

1.2. *Gidrologiya fani, uning vazifalari*

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli asarida quyidagi savollar o`rtaga tashlangan. Bular: “Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo`lida tahdid bo`lib turgan muammolarni anglab etayapmizmi? Xavfsizlikka tahdid solib turgan muammolarga nimani qarshi qo`ya olamiz?... biz istiqomat qilayotgan mintaqada jo`g`rofiy-siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo`la oladi? Xavfsizlikni qanday saqlab qolish mumkin?” Bu masalalar respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha xalqlarning dolzarb muammmolari sifatida kun tartibiga qo`yilgan.

Bu o`rinda mazkur masalalarga oydinlik kiritish uchun ikkita bir-biridan ajralmas savollarga javob topish lozim bo`ladi. Bular quyidagilardir: ekologiya va ekologik xavfsizlik nima? Ekologik xavfni vujudga keltiruvchi qanday omillar mavjud va ekologik xavfsizlikning tabiiy geografik jihatlari nimalardan iborat?

Ekologiya tushunchasini ilk bor nemis tabiatshunos olimi E.Gekkel` 1866 yilda chop etilgan “Organizmlarning umumiy morfologiyasi” nomli asari orqali fanga olib kirgan. Uning ta`riflashicha, “Ekologiya – tabiatni iqtisodiy jihatdan tadqiq qilish orqali barcha tirik organizmlarning organik va noorganik muhit omillari bilan birga, uning ta`sir doirasida turgan antogonistik va noantogonistik aloqadorlikda bo`lgan o`simlik va hayvonot dunyosi o`rtasidagi munosabatlarni ochib berish”. Hozirgi kunda turli fikrlarni umumlashtirgan holda ekologiyani *noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi tabiat tizimidagi tirik organizmlar va ularning atrof-muhiti bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlariga doir qonuniyatlarni tadqiq qiluvchi va ularga oid bilimlarni beruvchi fan*, deyishimiz mumkin.

Ekologiyani ob`ekti – noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi tirik organizmlar va ularning atrof-muhiti. Agarda organizmlar va ularning atrof-muhiti evolyutsion, ya`ni tabiiy tarzda rivojlanish jarayonini o`tayotgan bo`lsa, u holda ekologik muammolar yuzaga kelmaydi va shuning uchun ham ekologik tadqiqotlarga o`rin qolmaydi. Mazkur tabiiy rivojlanish jarayoni biologiya, geografiya, geologiya, gidrologiya, okeanografiya kabi fanlarning ob`ekti bo`lib qoladi.

Ekologiyani predmeti – organizmlarning o`zaro va atrof-muhit bilan bo`ladigan noevolyutsion ko`rinishdagi munosabatlaridir. Bu erda ham evolyutsion tarzda munosabatlar boshqa noekologik fanlar predmetiga kiradi. E. Gekkel` tomonidan fanga olib kirilgan ekologiyani aynan XIX asr o`rtalarida Markaziy Evropada yuzaga kelishi ham bejiz bo`lmasa kerak. Chunki, o`sha davrda sanoat rivojlangan Germaniyaning Sileziya va Rur havzalarida tabiat va jamiyat o`rtasidagi muvozanatning keskin ravishda buzilishi noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi ekologik jarayonlarni yuzaga keltirgan.

Adabiyotlarda ekologik xavf, ekologik tavakkalchilik (risk), ekologik xavfsizlik tushunchalari muayyan bir hududdagi ekologik vaziyatni ifodalash maqsadida ishlatiladi. Lekin ular turli joyda o`ziga xos holatni ifoda etishi mumkin. Masalan, **xavf** – ichki yoki tashqi omillar ta`sirida ob`ekt yoki sub`ektning dinamikasi, rivojlanish jarayoni va xususiyatlariga zarar etkazuvchi faoliyat yoki holat (Reymers, 1990; Yablokov, 1994; Sergunin, 2003). **Tavakkalchilik** – oldindan rejalashtirilmagan, bugun yoki ertaga to`satdan sodir bo`lishi mumkin bo`lgan

Xavf yoki tavakkalchilikni rejalashtirilgan tarzda oldini olish yoki rejalashtirilmagan holda tartibga tushirish mumkin va bu orqali xavfsizlik ta`minlanadi. Organizmlarning esa noqulay muhitga moslashishi adaptatsiya deb ataladi (Reymers, 1990; Charles, 1978) va bu holatda ham xavfsizlik ta`minlanishi mumkin.

“**Xavfsizlik**, - L.Yu.Xotuntsevning fikricha, - alohida shaxs, jamiyat va tabiat ob`ektlarining kuchli darajadagi xavf-xatardan himoyalanganlik darajasi bo`lib, uning asosiy mezonlari kelajakda va hozirda sodir bo`luvchi tabiiy yoki ijtimoiy xatardan kelib chiquvchi qo`rquv hissidir”.

K.Ya.Kondrat`ev (1993) va T.Aroshidzlar (1994) xavfsizlikni keng ma`noda hayot, salomatlik, insoniyatning asosiy huquqlari, hayotiy manfaatlarini ta`minlovchi manbalar, ijtimoiy tartibdagi resurslar bilan bog`liq xavflarga chidamlilik darajasidir, deb tushunadilar. V.N.Burkov, A.V.Shepkinlarning fikricha, - “Xavfsizlik zamonaviy, o`zaro tartibli fan yo`nalishi bo`lib, insoniyat, jamiyat, davlatning hayotiy zarur manfaatlarining texnologiya va tabiiy favqulodda holatlardan himoyalanganlik darajasidir”.

Bizning fikrimizcha, *xavfsizlik* keng ma`noli tushuncha bo`lib, birinchidan, *u nafaqat shaxs, to`g`rirog`i inson* (shaxs yuridik kategoriyaga tegishli), *jamiyat yoki davlat, balki tabiat va uning komponentlari nuqtai nazaridan ham qaralishi kerak*

Chunki ekologiya nafaqat insonlar, balki barcha tirik organizmlar o`rtasidagi va ularning atrof-muhiti bilan bo`ladigan munosabatlarni tadqiq qilishi yuqorida ta`kidlab o`tilgan edi. Vaholanki, xavfsizlik tushunchasi “bexatar yashash darajasi”ni ifoda etar ekan, u har qanday organizmlar, ya`ni tabiat komponentlarining ham bexatar yashashi nuqtai nazaridan qaralishi lozim. Negaki, biologik xilma-xillik inson xavfsizligining asosiy elementi va uni ta`minlash hozirgi kunda bevosita yoki bilvosita tarzda insoniyatga bog`liq bo`lib qoldi.

Tabiat komponentlarining o`zaro aloqasi natijasida yuzaga keluvchi har qanday voqea yoki hodisa tabiiy jarayon hisoblanib, tabiatdagi muayyan tabiiy tanlanish bosqichida turadi. Ammo undagi ayrim jarayonlar, masalan, chigirtkalarining son jihatdan ko`payib ketishi va ularning o`simlik dunyosi bilan bo`ladigan munosabatlari, albatta, inson xavfsizligiga ta`sir etadi. Bu ilgari (insoniyatning tabiatga ta`siri kam yoki deyarli bo`lmagan davrlarda) ham uchrab turgan tabiiy jarayon hisoblanib, ozuqa maydonining insonlar

tomonidan qisqartirilishi evaziga tezlashdi. Umumekologik nuqtai nazardan qaraganda barcha tirik organizmlarning xavf-xatarlardan saqlanganlik darajasi, ya'ni xavfsizligini ta'minlash biologik xilma-xillikni saqlash uchun ham zarurdir.

xavfsizlik nafaqat texnogen yoki tabiiy favqulodda holatlar va jarayonlardan organizmlarning saqlanganlik darajasi, balki u ko'zga ko'rinmas hamda bilvosita ta'sir etuvchi hodisa va jarayonlar orqali asta-sekin yuzaga keluvchi holatlardan himoyalanganlik darajasi ham bo'lishi mumkin. Masalan, "issiqxona samarasi" tufayli iqlimning asta-sekinlik bilan isib borishi va uning natijasida cho'llashish jarayonining yuzaga kelishi. Buning oqibatida cho'llashgan erlarda o'simlik va hayvonot dunyosi tur va son jihatdan kamayadi, ya'ni biologik xilma-xillik degradatsiyalanadi hamda insonlar uchun noqulay ekologik muhit yuzaga keladi. Albatta, bunday xavfsizlik ekologik turdagi xavfsizlikka kiradi. Lekin u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va shu kabi xususiyatlarga ham egadir. Demak xavfsizlikni xususiyatiga qarab qo'shimcha, to'ldiruvchi va aniqlovchi so'z yoki so'z birikmalari bilan ishlatish maqsadga muvofiqdir.

xavfsizlikni ta'minlashda tavakkalchilikni hisobga olish, uning darajasini aniqlash va boshqarish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir inson faoliyati, u qanday yuqori texnologik va xavfsiz darajada amalga oshirilmasin, muayyan bir tavakkalchilik darajasiga egadir. Masalan, suv omborining qurilishi, zavod yoki fabrikalarning ishga tushirilishi, tabiatdagi anomal holatlar ham organizmlar va ularning muhitiga doimo tahlika solib turadi.

Ushbu uchta holatlarni inobatga olgan tarzda biz **xavfsizlikka** - *organizmlar (jumladan, insonlar), ularning har xil shakl va ko'rinishdagi jamoasining atrof-muhitini turli ko'lamda evolyutsion yoki noevolyutsion tarzda sodir bo'luvchi, tavakkalchilikni inobatga oluvchi xavf-xatardan himoyalanganlik holati,* deb ta'rif beramiz.

Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki, xavfsizlik keng ma`nodagi tushuncha bo`lib, u nafaqat inson yoki jamiyat uchun, balki biotik va abiotik tabiat komponentlarining xavfsizligi, ya`ni tabiiy geografik nuqtai nazardan ham qaralishi zarur. Odatda tadqiqotchilar (Gleick, 1994; Gorbatskiy va boshq., 1995; Rosegrant, Ringler, 1997; Xorujaya, 2002) xavfsizlikni inson va jamiyat nuqtai nazaridan tushuntirishga harakat qiladilar va uni tasniflab beradilar. Masalan, A.A.Sergunin (2003), V.S.Polikarpov (2001), A.S. Makarychevalar (2001) xavfsizlik muammosini vujudga kelishiga ko`ra siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy, harbiy, ekologik, informatsion (axborot), sotsial, huquqiy, madaniy, intellektual, demografik, genetik, psixologik va h.k. turlarga, uning ta`minlash ko`lamiga ko`ra mahalliy, milliy, regional va global xavfsizliklarga ajratganlar.

Xavfsizlik qaysi bir jihatdan tahlil qilinmasin, pirovardida ekologik xavfsizlikka olib keladi (Perelet, 2000; Soysa, 1999,2002). Hozirgi kunda J.J.Holst (1989), T.Homer-Dixon (1993, 1994), P.H.Gleick (1994), V.V.Gorbatskiy, N.G.Rybal`skiy (1996), M.W.Rosegrant, C.Ringler (1997), V.I.Danilov-Danil`yan (1997, 2000), P.M.Mische (1998), A.Soffer (2000), W.S.Swaminathan (2001), T.A.Xorujaya (2002), G.Mamin (2003), R.Bruneau (2004) kabi tadqiqotchilar ekologik xavfsizlikni o`z ilmiy yo`nalishlari doirasida etarlicha tadqiq qilganlar. Ammo ularda ekologik xavfsizlik tushunchasiga ekologik jihatdan etarlicha ta`rif berilmagan. Jumladan, xitoylik tadqiqotchilar (Xiao, Chen, 2002; Li va boshq., 2002; Shi va boshq., 2006) ekologik xavfsizlikka inson va jamiyat nuqtai nazaridan ta`rif beradilar. Ularning fikricha ekologik xavfsizlik – inson hayoti, salomatligi, asosiy huquqlari, yashash kafolati, zaruriy resurslari, milliy iqtisodiyot, sotsial taraqqiyot, ijtimoiy tartib, zaruriy ekologik muhit kabilarning kam yoki umuman xavfsiz holati.

I.A.Krylova, - “Ekologik xavfsizlik – insoniyatning me`yoriy hayot faoliyati va sog`ligi, jamiyat mavjudligiga tahdid qiluvchi ekologik krizislar va halokatlarni (tabiiydan antropogen xarakterdagigacha) istisno qiluvchi atrof-

muhit holati (tabiiy resurslar, suv, atmosfera, tuproq, o`simlik va hayvonot olami) bilan bog`liq milliy va xalqaro xavfsizlikning tarkibiy qismi”, - deb izohlaydi. Bu kabi talqinlar inson xavfsizligiga qaratilgandir. O`zbek olimlaridan T.Tillyaev, - “Ekologik xavfsizlik – shaxs, aholi, sanoat va tabiat ob`ektlarining tashqi ta`sirdan himoyalanganlik darajasi”, - deb biladi.

Shunday qilib, yuqorida nomlari tilga olingan tadqiqotchilar ekologiyaning ob`ekti nafaqat inson, balki barcha tirik organizmlar bo`lishi mumkinligini hisobga olmaganlar. Biz tabiiy geografik nuqtai nazardan ekologik xavfsizlik tushunchasini ta`riflashda tabiat biokomponentlarining xavfsizligini inkor eta olmaymiz. Agarda ushbu tadqiqotchilar ekologik xavfsizlik tushunchasiga “inson” yoki “kishilik jamiyati” kabi so`z va so`z birikmalarini qo`shib, ya`ni “insonlarning ekologik xavfsizligi” yoki “kishilik jamiyatining ekologik xavfsizligi” kabi ifoda etganlarida biz ham ularning fikrlariga qo`shilgan bo`lar edik. Undan tashqari, ular ekologik xavfsizlikning mahalliy, milliy, regional va global miqyosda, ya`ni hududiylik xususiyatlariga e`tibor qaratmaganlar. Ekologik xavfsizlik turg`un holatdagi, o`zgarmaydigan daraja emas, u doimo harakatda va o`zgaruvchan, ya`ni dinamik holatdir.

Yuqoridagilarni tahlil qilgan holda biz ekologik xavfsizlikni – organizmlar va ularning atrof-muhitini har xil *omillar ta`sirida, turli miqyosda hamda tezlikda yuzaga keluvchi salbiy o`zgarishlardan, ularning davomiyligidan saqlanganlik holati*, deb hisoblaymiz. Mazkur tushunchada ekologiya (organizmlar va ularning yashash muhiti), xavfsizlik (salbiy holatlardan saqlanganlik darajasi) inobatga olingandir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning (1997) “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning asosiy bo`g`ini sifatida e`tirof etilgandir. Milliy xavfsizlik esa davlatning keng milliy qiziqishlari, tashqi iqtisodiy faoliyati va harbiy qudrati, shu davlatda istiqomat qiluvchi xalqning salomatligi, intellektual va ruhiy qiymatini siyosiy, sotsial, iqtisodiy, ekologik xavflardan himoyalanganlik holatidir.

Milliy xavfsizlik tushunchasi muayyan millat manfaatlari nuqtai nazaridan qaralmasdan “davlat xavfsizligi” tushunchasi bilan uygʻunlikda talqin qilinishi maqsadga muvofiqdir. Chunki koʻp millatli mamlakatlarda milliy xavfsizlik tushunchasining tor maʼnoda ishlatilishi boshqa millat vakillari ongida gʻoyaviy boʻshliqni keltirib chiqarishi mumkin. Respublikamizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladilar. Ular mustaqilligimiz egasi va davlatimizning asosiy tayanchidirlar. Shundan kelib chiqqan holda “milliy xavfsizlik” tushunchasi “davlat xavfsizligi” bilan sinonim sifatida qaralmogʻi zarur.

Tabiiyki, davlatning milliy ehtiyojlari oshgan sari unga boʻlgan xavf turlari ham ortib boradi. Bu esa milliy xavfsizlikning tarkibiy tuzilmalarini qarab chiqishni talab qiladi (Polikarpov, 2001).

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov (1997) mintaq va davlatimizdagi real sharoitni hisobga olgan holda milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi quyidagi omillarni koʻrsatib oʻtgan

Ayrim tadqiqotchilar (Manilov, 1999; Sergunin, 2003) milliy xavfsizlik oʻz ichiga siyosiy, iqtisodiy, ekologik, genetik xavfsizliklarni ham qamrab olishi lozim, deb koʻrsatadilar. Baʼzilar esa (Daniel, 1990; Levy, 1995; Kok, 1996) uning turli jihatlarini ajratib beradilar. Lekin ularning barchasida ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida eʼtirof etilgan.

Nima sababdan ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning umumeʼtirof etilgan elementi va ayni chogʻda birlamchi omili sifatida belgilangan? Tabiiy geografik nuqtai nazardan bu savolga javobni quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

Tabiat komponentlari va uning tabiiy geografik xususiyatlari orqali muayyan bir hududda (jumladan, mamlakat miqyosida) ekologik xavfsizlikka tahdid solish imkoniyatining mavjudligi. Masalan, transchegaraviy daryolar – Dunay, Amudaryo, Sirdaryo, Amazonka kabilar suvining ifloslanishi va ulardan foydalanishda xalqaro kelishuvlarga amal qilmaslik, choʻllashish

jarayoni, tuproq shoʻrlanishi, chuchuk suv muammosi, tropik kasalliklarning keng tarqalishi kabi holatlar oʻz-oʻzidan milliy taraqqiyotga jiddiy xavf soladi (Gʻulomov, 1985; Chimbarisov, Baxritdinov, 1989; Reymers, 1992; eckersley, 1996; Rafikov, 1994, Karimov, 1997; Zubakov, 1999; Chub, 2000; Vahobov, 2001).

tabiiy resurslarga egalik qilish maqsadidagi harbiy toʻqnashuvlarning oʻsib borishi ayrim tadqiqotchilarining (Vavilov, 1984; Gleick, 1994; Gleditsch, 1998; Kpylova, 1998; Ohlsson, 1999; Canter, Ndegwa, 2002) fikrlariga koʻra, hozirda tabiiy, ayniqsa energetik resurslarning taqchilligi harbiy kelishmovchiliklarni yuzaga keltirmoqda. AQShning Yaqin Sharq davlatlaridagi neft boyliklariga nisbatan xuruji bunga yaqqol misol boʻla oladi.

ekologik qochoqlar migratsiyasi koʻlamining oshib borishi, yaʼni ekologik inqirozli hududlardan aholining yoppasiga koʻchib ketishi va ekologik xavfsizlik taʼminlangan joylardan panoh topishi. Masalan, Sahroi Kabirdagi choʻllashish, dengiz boʻyi mamlakatlarida suv sathining koʻtarilishi va tsunami kabi tabiiy ofatlarning koʻpayishi, Orol dengizi va Chad koʻlining qurib borishi kabilar ekologik qochoqlar migratsiyasiga sabab boʻlmoqda (Holst, 1989; Markakis, 1989; Hassan, 1991; Homer-Dixon, 1994).

harbiy qurollarni sinash va mashqlarni oʻtkazish, yadroviy, kimyoviy va biologik qurollarni saqlash hamda ularni amalda qoʻllab koʻrish orqali atrof tabiiy muhitda yuzaga kelayotgan salbiy oqibatlar (Brock, 1991; Soroos, 1992; Harbottle, 1995). Bunga misol qilib, Chernobil, Semipalatinsk, Shimoliy Koreyada ekologik inqirozli hududlarning vujudga kelganligini koʻrsatib oʻtish mumkin.

Beshinchidan, tabiiy resurslar va tabiat obʼektlarining ekologik terrorizm obʼekti sifatida olinayotganligi (Daniel, 1998; Valentinov, 2003; Sosedova, Zaxarov, 2003; Fedorov, 2004; Dumenko, 2004). Sarez koʻliga qaratilgan terroristik faoliyat bunga misol boʻladi.

Bizningcha ekologik terrorizm – muayyan tabiat kompleksidagi ustun yoki zaif tabiat komponentlariga salbiy taʼsir etadigan va eng oddiy vositalar orqali amalga oshiriladigan, aholida katta darajadagi qoʻrquv, tahlika uygʻotuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy xarakterdagi inson va inson uyushmalarining ongli, qasddan, maʼlum maqsadni koʻzlagan holdagi harakatlari. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tushdagi talablar davlatning biron bir faoliyatni amalga oshirishiga yoki muayyan faoliyatni amalga oshirmasligiga qaratilgan boʻladi.

Oltinchidan, milliy xavfsizlikni taʼminlash va mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ekologik bilimlarning etishmasligi orqali ekologik xavfni yuzaga kelish imkoniyatining mavjudligi (Medvedov, Aldasheva, 2001 2008). Masalan, Sobiq Ittifoq davrida Orol dengizi havzasi suvlaridan noekologik foydalanish, paxta yakkahokimligi shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida shuni taʼkidlash zarurki, ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlik tizimidagi oʻz echimini kutayotgan birlamchi va asosiy muammodir. U turli hududlar va davrlarda turli koʻrinishda, shakl va turlarda namoyon boʻladi. Shuning uchun ham ekologik xavfsizlikning geografik jihatlarini tadqiq qilish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasbetadi.